Qoraqalpoq tiliga bag’ishlangan anjuman

Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda 1-dekabr – Qoraqalpoq tili kuni munosabati bilan “Mustaqillik davrida qoraqalpoq tili va adabiyoti taraqqiyoti masalalari” mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.Anjumanda Qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berilganidan buyon o‘tgan 33 yil ichida qoraqalpoq tilining hayotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq yutuq va kamchiliklar, hozirgi qoraqalpoq tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalar, muammolar haqida qisqacha so‘z boradi.

Konferensiyaga taqdim etilgan ma’ruzalarning mavzulari rang-barang bo‘lib, ularda qoraqalpoq tilshunosligining mustaqillik davridagi rivojlanish tamoyillari, qoraqalpoq tilining huquqiy maqomi, qoraqalpoq terminologiyasi va uni tartibga solish, morfologiya, leksikografiya sohalariga doir masalalar muhokama qilinadi.